

**II.M.ABDULLAYEV NOMIDAGI GEOLOGIYA VA GEOFIZIKA
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.24/30.10.2020.GM.125.01 RAQAMLI ILMY KENGASH**

“GEOLOGIYA VA GEOFIZIKA INSTITUTI” DM

O‘TAMURODOV ELBEK ALIMJONOVICH

**ZIRABULOQ TOG‘LARINING PLUTONIK DAYKALARI
(JANUBIY TIYON-SHON)**

04.00.03 – Geotektonika va geodinamika. Petrologiya va litologiya

**GEOLOGIYA-MINERALOGIYA FANLARI
bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

**Geologiya-mineralogiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по геолого-минералогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on geological-mineralogical sciences**

O‘tamurodov Elbek Alimjonovich Zirabuloq tog‘larining plutonik daykalari (Janubiy Tiyon-Shon).....	3
Утамуродов Элбек Алимжонович Плутонические дайки Зирабулакских гор (Южный Тянь-Шань).....	19
Utamurodov Elbek Alimjonovich Plutonic dykes of Zirabulak Mountains (Southern Tien-Shan).....	37
E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati Список опубликованных работ	
List of published works.....	40

**H.M.ABDULLAYEV NOMIDAGI GEOLOGIYA VA GEOFIZIKA
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.24/30.10.2020.GM.125.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

“GEOLOGIYA VA GEOFIZIKA INSTITUTI” DM

O‘TAMURODOV ELBEK ALIMJONOVICH

**ZIRABULOQ TOG‘LARINING PLUTONIK DAYKALARI
(JANUBIY TIYON-SHON)**

04.00.03 – Geotektonika va geodinamika. Petrologiya va litologiya

**GEOLOGIYA-MINERALOGIYA FANLARI
bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PHD/GM183 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya H.M.Abdullayev nomidagi Geologiya va geofizika instituti Davlat muassasasida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.ingeo.uz) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	Ishbayev Xalbay Djangiurovich geologiya-mineralogiya fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	Axundjanov Raxmadjon geologiya-mineralogiya fanlari doktori Dulabova Nafisa Yusupovna geologiya-mineralogiya fanlari nomzodi
Yetakchi tashkilot:	Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti

Dissertatsiya himoyasi H.M.Abdullayev nomidagi Geologiya va geofizika instituti huzuridagi DSc.24/30.10.2020.GM.125.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil 26-iyul soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100164, Toshkent shahri, Olimlar ko'chasi, 64-uy. Tel.: (99871) 209-11-32 (5505), E-XAT ingeo@exat.uz; E-mail: ingeo@ingeo.uz).

Dissertatsiya bilan H.M.Abdullayev nomidagi Geologiya va geofizika institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (20-raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100164, Toshkent shahri, Olimlar ko'chasi, 64-uy. Tel.: (99871) 209-11-32.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil 5-iyul kuni tarqutildi.

(2024-yil 5-iyuldagi 20-raqamli reyestr bayonnomasi).



L.R. Sadikova

L.R.Sadikova
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
rais o'rinbosari, g.-m.f.d.

E.M. Amirov

E.M.Amirov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy
kotibi, g.-m.f.f.d. (PhD)

P.S. Sultonov

P.S.Sultonov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, professor, g.-m.f.d.

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Tadqiqotning dolzarbligi va zarurati. Jahon amaliyotida soʻnggi yillarda oltin, nodir metallar va nodir yer elementlari maʼdanlashuvini qidirib topishning ilmiy mezonlarini ishlab chiqish maqsadida turli plutonik daykalar hosilalarini oʻrganish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Rivojlangan mamlakatlarda, ayniqsa, Xitoyda oʻtkazilgan tadqiqotlar natijalari ushbu hosilalar magmasining hosil boʻlish manbalari, mutlaq yoshi, foydali qazilmalar konlarini hosil boʻlishdagi roli kabi bir qator muhim muammolarni hal qilishga va ularni bashorat qilish omillarini ishlab chiqishda muhim axborot manbasi boʻlib xizmat qiladi.

Jahon miqyosida daykali hosilalarning formatsion tahlili, moddiy tarkibi, maʼdandorligi, endogen maʼdanlashuv bilan munosabatini aniqlash boʻyicha bir qator maqsadli tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, lamprofir daykalari bilan oltin, kumush, polimetall va nodir yer elementlari maʼdanlashuvlari bogʻliqligi hamda endogen maʼdan konlarni qidirishda ilmiy asoslangan omillar yaratishga alohida eʼtibor berilmoqda.

Respublikamizning Markaziy Qizilqum, Nurota, Zirabuloq-Ziyovuddin, Janubiy Hisor va Chotqol-Qurama yirik togʻ-kon mintaqalaridagi oltin maʼdanli hamda nodir metalli konlardagi kichik intruziya va daykalarni oʻrganish boʻyicha tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda. Xususan, yangi hosilalarning petrografik turlari (lamproitlar, lamprofirlar va boshqalar) va ularning endogen maʼdanlashuv hosil boʻlishdagi roli aniqlandi. Oʻzbekiston Respublikasining yanada rivojlantirish boʻyicha Yangi Oʻzbekiston taraqqiyot strategiyasida “Sohani yanada rivojlantirish, takomillashtirish, jadallashtirish”¹ boʻyicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Bu borada, Zirabuloq togʻlaridagi daykalarni petrografik va petrogeokimyoviy xususiyatlarini aniqlash, ularning maʼdandorligini, maʼdanlashuv bilan oʻzaro aloqalarini oʻrganish, qidirish omillarini ishlab chiqish, natijalarni amaliyotga joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “Oʻzbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish boʻyicha Harakatlar strategiyasi toʻgʻrisida”gi PF-4947-son farmonida, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 1-martdagi PQ-3578-sonli “Oʻzbekiston Respublikasi Davlat geologiya va mineral resurslar qoʻmitasi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora - tadbirlari toʻgʻrisida” gi Qarori, 2019-yil 23-iyuldagi PQ-4401-sonli “Yer qarini geologik jihatdan oʻrganishni yanada takomillashtirish va 2020-2021 yillarda mineral xomashyo bazasini rivojlantirish va qayta tiklash davlat dasturini amalga oshirish chora tadbirlari toʻgʻrisida”gi Qarori, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekiston taraqqiyot strategiyasi toʻgʻrisida”gi PF-60 son qarorlari, hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa meʼyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur dissertatsiya ishining tadqiqot natijalari muayyan darajada xizmat qiladi.

¹ Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekiston taraqqiyot strategiyasi toʻgʻrisida”gi PF-60-sonli Farmoni.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning VIII. "Yer haqidagi fanlar (geologiya, geofizika, seysmologiya va mineral xomashyolarni qayta ishlash)" ustuvor yo'nalishlariga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Lamprofirlar daykalarini o'rganish bo'yicha bir qator olimlar, X.N.Boymuxamedov, X.M.Abdullayev, I.X.Xamraboyev, I.V.Mushkin, F.A.Usmanov, Z.A.Yudalevich, F.K.Divayev, A.V.Golovko, R.Axundjanov va boshqalar katta ishlar qilishgan. Ularning ishlarida dayka turlari, daykali kamarlar, daykali mintaqalar, daykalarining tarqalishlari, yotish sharoitlari, qamrovchi jinslar bilan aloqa xarakteri kabi ma'lumotlar keltirilgan. Ayniqsa, bu borada oxirgi yillarda lamprofirlarga alohida e'tibor qaratilayapti. Jumladan, H.M.Abdullayev nomidagi Geologiya va geofizika Institutning Petrometallogeniya ilmiy maktab yo'nalishidagi olimlar R.Axundjanov, X.D.Ishbayev, U.D.Mamarozikov, F.B.Karimova, A.A.Qurbonov, N.R.Dolimov, K.M.Kosbergenov va boshqalar tomonidan yirik ilmiy maqolalar hamda monografiyalar yaratildi. Jumladan, Вулканические и плутонические ассоциации Узбекистана (2019), Дайки и оруденение Койташского рудного поля (Южный Тянь-Шань) (2020), Внутриплитный магматизм и рудообразование Чаткало-Кураминского региона (Срединный Тянь-Шань) (2020), Плутонические дайки золото-серебряных месторождений Алмалык-Ангренского района (2020) va b. Yangi turdagi lamprofirlar aniqlandi, jumladan, oxirgi yillarda R.Axundjanov, R.Dolimov, A.Qurbonov, K.Kosbergenov va boshqalar tomonidan kampto-monchikitlar, kampto-spessartitlar, minettalar, olivinli kersantitlar aniqlandi. Undan tashqari, dissertatsiya mavzusiga oid geologik adabiyotlar, fond materiallari, chop etilgan maqolalar tahlil qilindi. Jumladan, "O'zbekiston petrografiyasi" (1964, 1965); "G'arbiy O'zbekiston granitoidlarning formatsion tahlili" (1975); "G'arbiy O'zbekiston magmatizmi va postmagmatik jarayonlar" (1958); "Daykalar va ma'danlashuv" (1957); X.N.Boymuxamedovning Zirabuloq tog'lari lamprofirlarining yoshi to'g'risida (1954), V.M.O'razayevning Zirabuloq tog'lari dayka hosilalari to'g'isida (1954), A.F.Sviridenkoning G'arbiy O'zbekiston ishqorli lamprofirlari to'g'risida va b. asarlar to'liq tahlil qilindi.

O'rganilgan lamprofir daykalari Xalqaro atamalar komissiyasi tavsiyasiga ko'ra (2009), ohak-ishqorli va ishqorli lamprofirlar oilasiga mansub bo'lib, Zirabuloq intruzivida va uning atrofiga keng tarqalgan. Ular yuqorida zikr etilgan mualliflar tomonidan u yoki bu darajada tadqiq etilgan. Jumladan, ularning geologik yoshi, tarkibi, ma'dandorligi va ma'danlashuv hosil bo'lishidagi ahamiyati kabi muammolar o'z yechimini kutmoqda.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ilmiy tadqiqot muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalarini bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti H.M.Abdullayev nomidagi Geologiya va geofizika institutining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining: 290 - sonli "O'zbekistonning tog'-ma'danli hududlari tog' jinslari, minerallari va ma'danlarining etalon na'munalari kolleksiyasini hamda

ularning elektron bazasini yaratish” (2021-2023) va 286 - sonli “O‘zbekiston magmatik jinslari petroturlari Atlasini tuzish (II bosqich)” (2019-2023) mavzularidagi loyihalar doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Zirabuloq tog‘lari plutonik daykalarining geologik-petrografik, petrokimyoviy, geokimyoviy xususiyatlari va ma‘dandorligini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Zirabuloq tog‘laridagi plutonik daykalarining petrografik, mineralogik, petrogeokimyoviy xususiyatlarini aniqlash;

Zirabuloq tog‘lari plutonik daykalarining tegishli majmualarga mansubligini aniqlash;

Zirabuloq tog‘larining plutonik dayka hosilalarining petrogenetik turlarini ajratish hamda ma‘dandorligini aniqlash hisoblanadi.

Tadqiqotning obyekti sifatida Zirabuloq tog‘larining plutonik daykalari olingan.

Tadqiqotning predmeti - Zirabuloq tog‘laridagi monchikit, olivinli kamptospessartit, malxit, spessartit, kersantit, minetta, dioritli porfirit, monsogranodiorit-porfir daykalari hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishini bajarishda an‘anaviy petrografik usullar qo‘llanildi, jumladan, tog‘ jinslari namunalarining shaffof shliflari zamonaviy optik Optiphot 2 pol va Polam P-311 rusumli mikroskop yordamida tog‘ jinsining tuzilishi, minerallarning optik xususiyatlari aniqlandi. Sayqallangan shliflar elektron mikroanalizator Jeol-8800Rh (Yaponiya) yordamida aksessor minerallarning uchrashish shakllari va kimyoviy tarkiblari asoslandi. Tog‘ jinsining kimyoviy tarkibi ICPE-9000 spektrometrdan ICP-MS usullar yordamida aniqlandi. Petrografik, mineralogik, petrokimyoviy va geokimyoviy tadqiqotlar natijalarini qayta tahlil qilishda kompyuter dasturlaridan (Excel, Petro Explorer) foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Zirabuloq tog‘larida keng tarqalgan plutonik daykalar zamonaviy usullar yordamida batafsil o‘rganilgan va bir nechta petrografik turlari ajratilgan;

ilk bor lamprofirlarning ishqorli turlari-monchikitlar va olivinli kamptospessartitlar aniqlangan;

plutonik daykalar 3 ta magmatik: qoratepa-zirabuloq adamellit-granitli majmuasining tomirli fatsiyasi, shimoliy nurota daykali majmuasi va janubiy tiyon-shon dayka-diatremali majmualariga mansubligi asoslangan;

plutonik daykalar niobiy, tantal, gafniy, qo‘rg‘oshin, kumush, selen, margimush, vismut va NYEga geokimyoviy ixtisoslashuvi aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari:

plutonik daykalarining geologik, petrologik va geokimyoviy xususiyatlari hamda ularning ma‘dandorligi, shu jumladan, kumush, kamyob va polimetall, nodir yer elementlari kabi minerallashuvga ixtisoslashuvi aniqlangan;

plutonik daykalarining petrografik turlari ajratilgan;

plutonik daykalarining namoyon bo'lish mustaqilligi, ularning geologik o'zaro aloqalari, tarkibining o'ziga xos xususiyatlari aniqlangan;

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi to'plangan daliliy materiallarning katta hajmi va o'tkazilgan laboratoriya sinovlari bilan asoslanadi. Jumladan, 70 ta namunalar olindi, 150 m mikropetrografik kesmalar, 450 m petrografik profillar tuzildi, 40 ta shaffof va 20 ta sayqallangan shliflar tayyorlandi, 25 ta silikat tahlillari, 30 ta ICP-MS spektral tahlillari o'tkazildi va turli diagnostik diagrammalarda tahlil qilindi, 162 nuqtali mikroanalizator tahlillari o'tkazilgan. ICP-MS tahliliy ma'lumotlari va silikat tahlillari O'zbekiston Respublikasi Davlat geologiya qo'mitasining "O'zgosstandart" tomonidan sertifikatlangan laboratoriyalarida olingan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati plutonik daykalarining yangi petrografik turlarining ajratilishi, ularning moddiy tarkiblari, ma'dan va aksessor minerallarning kamyob turlari, elementlar nisbati indikatorlari va nodir yer elementlarining miqdorlari daykalar magmasining tabiati, manbalari va ular shakllanishining geodinamik vaziyatlarini hamda ma'dandorligini aniqlash muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi va daykalar-endogen ma'danlashuv hosil bo'lishining asosiy darakchilaridan biri ekanligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati, plutonik daykalarining moddiy tarkibi va struktura-teksturaviy xususiyatlari Zirabuloq-Ziyovuddin tog'larida kumush, nodir metall, nodir yer va boshqa metallarga ma'danlashuvni qidirish va bashorat qilishda qidiruv omili sifatida qo'llanilishi mumkin hamda ilmiy-tematik loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirish Zirabuloq-Ziyovuddin tog'laridagi daykalar ma'danlashuvini qidirish va bashorat qilish uchun indikator roli ekanligi natijalari O'zbekiston Respublikasi Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi ishlab chiqarish korxonasi va ekspeditsiyalarida qo'llash uchun xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Zirabuloq tog'larining plutonik daykalarini batafsil o'rganish natijalari asosida:

Zirabuloq tog'lari plutonik daykalarining geologik, mineralogik, petrografik va petrogeokimyoviy xususiyatlari "O'zbek geologiya qidiruv" AJ ning amaliyotiga joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligining 2023-yil 16-avgustdagi 08-2408-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, plutonik daykalarining geologik-petrografik va petrogeokimyoviy xususiyatlari boshqa hududlardagi muqobil daykalar tarkibini qayta ko'rib chiqishga va mintaqada magmatik majmualarning hosil bo'lish ketma-ketligini batafsil tavsiflashga imkon bergan;

Monchikit va olivinli kampto-spessartit daykalarining tarkibi "O'zbek geologiya qidiruv" AJ ning amaliyotiga joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligining 2023-yil 16-avgustdagi 08-2408-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, ishqorli lamprofirlar va olivinli kampto-spessartit daykalari janubiy tiyon-shon majmuasiga mansubligi va mitaqada eng yosh magmatik hosilalar ekanligi yirik miqyosli geologik hamda metallogenik xaritalar tuzish imkonini bergan;

Plutonik daykalarining petrografik va genetik turlarining ma'dandorligi va ularning mintaqadagi kumush, nodir, kamyob va polimetallar minerallashuvi bilan genetik bog'liqligi "O'zbek geologiya qidiruv" AJ ning geologiya-qidiruv ishlariga joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligining 2023-yil 16-avgustdagi 08-2408-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, plutonik daykalarining genetik turlari hududda endogen ma'danlashuvni qidirish va bashorat qilishda qidiruv omili sifatida foydalanish имконини берган.

Tadqiqot natijalarining aprotatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma'ruzalar qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 9 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, 4 ta ilmiy maqola, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarning asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan 3 ta respublika va 1 ta xorijiy ilmiy jurnallarda hamda 5 ta tezis konferensiya materiallarida nashr qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, beshta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 112 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida olib borilgan tadqiqotning dolzarbligi va unga bo'lgan zaruriyat, maqsad va vazifalar asoslab berilgan, obykti va predmeti, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari, tadqiqot natijalarining amaliyotga tadbiiq qilinganligi, nashr qilingan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi "Zirabuloq tog'laridagi plutonik daykalarining o'rganilganlik holati" bobida oxirgi yillarda G'arbiy Tiyon-Shonning Markaziy Qizilqum, Nurota, Zirabuloq-Ziyovuddin va Chotqol-Qurama mintaqalaridagi oltin-noyob metall konlari atrofida kichik intruziyalar hamda daykalarni o'rganishga oid qator ilmiy ishlar chop etildi. Bu tadqiqotlar natijasida, ayniqsa, lamprofirlarning yangi petrografik turlari (kamptonitlar, monchikitlar, olivinli kampto-spessartitlar, olivinli lamprofirlar, olivin-avgitli kersantitlar va b.) va ularning endogen ma'danlashuv hosil bo'lishidagi roli aniqlandi (Axunjanov va b., 2013; Shukurov, 2019; Mamarozikov, 2020; Ishbayev va b., 2020; Karimova, 2020; Dolimov, 2020; Qurbonov, 2021; Kosbergenov, 2023 va b.).

Zirabuloq-Ziyovuddin tog'larida tarqalgan daykalarni X.N.Boymuhamedov (1954, 1960), V.M.O'razayev (1954), H.M.Abdullayev (1957), I.X.Xamraboyev (1958), A.F.Sviridenko (1958), I.M.Evfimenko, V.M.Petrov (1962), Z.A.Yudalevich (1975), V.L.Shadrin (1999), R.S.Xan (2006) va boshqalar o'rganishgan. Jumladan, I.M.Evfimenko, V.M.Petrov (1962) ma'lumotlariga qaraganda, Zirabuloq intruzivi atrofida dioritlarning kichik tanalari va dioritli porfiritlar, spessartit daykalari granitlar tomonidan kesib o'tilganligi aniqlangan. Shu bois, ularning yoshi granitgacha, ya'ni karbon deb asoslashgan.

X.N.Boymuhamedov (1954) Zirabuloq intruzivi atrofida ikki xil yoshdagi lamprofirlarning 3 ta petrografik guruhlarini: (a) malxitlar, b) spessartitlar, v) kersantitlar ajratgan. Malxitlar Qo'chqorli, Changalli, Beshtol, Ingichka va boshqa uchastkalarda dayka, shtok va linzasimon shakllarni hosil qiladi.

Lamprofirlar orasida malxitlar faqat qamrovchi jinslar ichida uchrashi va intruzivning kechki fazalari bilan yorib o'tilishi tufayli H.M.Abdullayev hamda X.N.Boymuhamedovlar ularni qadimgi, ya'ni togranitoidgacha hosil bo'lgan deyishgan. Bu guruhga ayrim spessartitlar va vomezitlar ham kiritishadi.

V.M.O'razayev (1954), H.M.Abdullayev (1957), Zirabuloq tog'laridagi lamprofirlar diorit va kvarsli dioritlarga sekin-asta o'tadi hamda oraliq tog' jinslarini hosil qilishini kuzatishgan.

I.X.Xamrabojev (1958) Zirabuloqning Qo'chqorli va Lapas uchastkalarida lamprofir daykalari kuchli xloritlanish hamda karbonatlanishga uchraganligini aniqlagan.


Ikkinchi bob **“Zirabuloq-Ziyovuddin tog'larining Janubiy Tiyon-Shonda tutgan o'rni va geologik tuzilishi”** ikki bo'limdan iborat bo'lib, unda geologik tuzilishi va intruziv hosilalar ko'rib chiqilgan.

Zirabuloq-Ziyovuddin tog'lari Janubiy Tiyon-Shon Zarafshon tizmasining eng g'arbiy tugallanishi hisoblanadi va Nurota mintaqasiga (segment) kiradi. U yirik Zarafshon yer yorig'i zonasida joylashgan Hisor batoliti, Qoratepa, Zirabuloq, Oqmozor, Qo'shquduq va Tozbuloq granitoidli intruziyalar qatorida joylashgan.

Zirabuloq-Ziyovuddin tog'larining stratigrafiyasi to'g'risidagi ma'lumotlar R.S.Xan va boshqalar (2006) bo'yicha ba'zi qo'shimchalar bilan berilgan (Mirkamalov va boshqalar, 2021). Zirabuloq tog'larining geologik tuzilishida mezozoygacha bo'lgan cho'kindi-metamorfik hosilalar kembriydan permgacha bo'lgan davrda qabul qilingan.

Zirabuloq tog'larining geologik tuzilishida (1-rasm) quyi va o'rta karbon sappen mikstitli majmuasi, ordovik-silur davri oltiovol, yarmanchi svitalarining terrigen yotqiziqlari, quyi silur-yuqqori devon karbonat yotqiziqlari, quyi-o'rta karbon tim va kattasoy vulkanogen hosilalar majmuasi, tepali flish-olistostrom svitasi, katarmay svitasi: kembriy-silur ofiolitli majmuasi, quyi devon jilandi vulkanogen va qizbibi karbonatli svitalar, quyi va yuqori devon bulyamush hamda rabinjon svitalari, Zirabuloq-Ziyovuddin granitoidli intruziyalari, vulkanogen hosilalar: riolitlar, bazaltlar va serpentinlar tanalari ishtirok etadi.

Bu yotqiziq va hosilalar qoraqo'ton diorit-lamprofir-granitoid-porfirli majmua ($\delta\pi D_2-C_2kr$) daykalari hamda kichik intruziyalari, Qoratepa-Zirabuloq (C_3-P_1) majmuasi daykalari va Janubiy Tiyon-Shon (T_{2-3}) majmuasiga tegishli daykalar bilan kesib o'tilgan.



1-rasm. Zirabuloq-Ziyovuddin tog'larining geologik xaritasi (Xan va b., 2006-y. M1:100 000). 1-birlashtirilgan qamab, sukayti va zarafshon to'rtlamchi davr majmualari, 2-kassantov svitasi, 3-sarbatir svitasi, 4-sugrali svitasi, 5-birlashtirilgan qozoqto'v va nurin svitalari, 6-birlashtirilgan oqjar va buxoro svitalari, 7-tim svitasi, 8-sukayti svitasi, 9-qoraiz svitasi, 10-azkamar svitasi, 11-tepalin svitasi, 12-tim svitasi, 13-sappen svitasi, 14-jalqiroymaxal-svitasi, 15-pyazin svitasi, 16-kattajar svitasi, 17-tirikbobo svitasi, 18-oltio'vul svitasi, 19-bulya-mush svitasi, 20-katarmay svitasi, 21-qorachaquduq majmuasi: 1-faza yirik xoldor adamellit-gneys va granit-gneyslari, 22-tim majmuasi: 1-faza yirik xoldor adamellit-gneys va granit-gneyslari, 2-faza mayda donali biotitli granit-gneyslar, 23-qoratepa-zirabuloq majmuasi: 2-faza o'rta donali amfibol-biotitli adamellitlar va granitlar, 24-oltio'vul subvulkanik majmuasi: datsitlar, riolitlar, andezitlar, 25-27-qoraqo'ton daykali majmuasi: dioritli porfirritlar, granodiorit-grant-porfirilar, kvarsli dioritlar, lamprofirilar, tonalit va tonalit-porfirilar, 28-janubiy tiyon-shon majmuasi: kamptonitlar, monchikitlar, olivinli kersantitlar, asosli lamprofirilar, 29-yer yoriqlari, 30-intruziv plutonlar: 1- Chaydaroz, 2-Qo'shqduq, 3-Mayzak, 4-Oqmozor, 5-Gunjak, 6-Qamab, 7-Jatin, 8-Chiroqjo'ra, 9-Ketmonchi, 10-Qutchi, 11-Zirabuloq, 12-Jalqir, 13-Tim.

Uchinchi bobda **“Zirabuloq tog'laridagi plutonik daykalarining geologik-petrografik tavsiflari”** deb nomlanib, yettita bo'limdan iborat.

Zirabuloq tog'lari plutonik daykalarini monchikit, olivinli kampto-spessartit, malxit, spessartit, kersantit, dioritli porfirritlar, monsoqgranodiorit-porfirillardan tashkil topgan.

Monchikit daykasi birinchi marta 1957-yilda E.F.Smironova tomonidan geologik xaritalash ishlari jarayonida topilgan va 1958-yilda A.F.Sviridenko tomonidan mikroskopik tavsif berilgan. Monchikit daykasi yangi analitik usullar yordamida to'liq o'rganildi.

Monchikit daykasi Organcha qishlog'idan 3,5 km shimoliy-g'arbda Zirabuloq intruzivining shimoliy kontakti suvayirg'ichida joylashgan bo'lib, 80 m intruzivning biotitli granitlarini va 130 m qamrovchi slanetslarni yorib chiqqan. Uning qalinligi taxminan 10 sm dan 50 sm gacha yetadi. Uning yotishi tik, intruziv ichida 3 ta tomirga (apofiza) ajraladi va janubiy-g'arbgacha cho'zilgan.

Makroskopik jihatdan jins to'q kulrang, deyarli qora, och yashil rangga ega, o'ta zich, aniq porfir tuzilishiga ega. Porfir ajrallamalari noaniq yumaloq shakllarga

ega diametrik 1,0 mm dan oshmaydigan olivin va psevdoleysitdan iborat. Dayka tanasining chekka qismlari va ingichka tomir apofizalarida kriptodonal tuzilish kuzatiladi, porfir ajralmalari deyarli yo'q.

Monchikitning mineralogik tarkibida psevdoleysitdan (18-20 %) tashqari kersutit, monoklin piroksen-tatanavgit, olivin, biotit (5 %) uchraydi. Undan tashqari, anal'sim, seritsit, karbonat, talk, albit apatit va ma'dan minerallarining mikrolitlari ajratiladi.

Psevdoleysit yumaloq yoki sakkiz qirrali shakldagi yirik zonal porfir ajralmalarini (1,0 mm gacha) hosil qiladi, ularning o'rnini butunlay seritsit va karbonat, albit, kaliy-natriyli dala shpati va anal'sim egallaydi.

Olivinli kampto-spessartitlar ilk bor Zirabuloq intruzivi Kattasoyning yuqori oqimi chap irmog'ida bir nechta (70 metrda 8 ta dayka-tomir) kichik qalinlikdagi Zirabuloq intruzivining biotitli granitlar orasida daykalar to'dasini hosil qiladi. Azimut yo'nalishi 270-275^o, qalinligi 20 smdan to 1,8 metrgacha yetadi, yotishi tik (80-90^o). Ba'zi joylarda o'ta mayda donali lamprofir magmasining kechki fazasining ingichka tomirchalari (0,3-0,5 sm) kuzatiladi. Tog' jinsining tashqi ko'rinishi to'q-kulrang, qora, yashilsimon dog'lar mavjud bo'lib, diametri 35 smgacha bo'lgan sharsimon ajralishlar kuzatiladi.

Olivinli kampto-spessartit mayda donali, lamprofirli tuzilishga ega bo'lib, porfir ajralmalarga rangli minerallar-olivin, piroksen va rogovaya obmanka uchraydi. Porfir ajralmalar to'liq kristallangan prizmatik-donali asosiy massada plagioklaz (40-50 %), biotit va porfir ajralmalarda uchraydigan rangli minerallardan iborat. Rangli minerallarning umumiy miqdori 40 %dan 60 %gacha yetadi. O'rtacha 3ta shaffof shlif bo'yicha olivinli kampto-spessartitlarning minerallar miqdori quyidagicha: plagioklaz-45-50 %; rogovaya obmanka-20-23 %; piroksen-17-20 %; olivin-13-15 %; ma'dan minerallar-1-3 %.

Malxitlar Qo'chqorli, Changalli, Beshtol, Ingichka, Kalta va boshqa joylarda tarqalgan. Ular deyarli silur davri cho'kindi-metamorfik va ohaktoshlar orasida joylashgan. Ular dayka, shtoksimon va sillga o'xshash tanalarni hosil qiladi. Ba'zi daykalarning uzunligi 10-15 metr dan to 800 metrgacha yetadi. Qalinligi odatda 0,5m, ba'zan 2-3 m (Boymuxamedov, 1954).

Ingichka konining asosiy shaxtasidan 15-20 m janubiy-sharq qismida qalinligi 1,5 m bo'lgan malxit daykasi uchraydi. Dayka shimoliy-sharq yo'nalishda ohaktoshlarni kesadi, yotishi tik. Tashqi ko'rinishi to'q kulrang, qoramtir. Tuzilishi o'rta donador, lamprofirli.

Malxitning mineralogik tarkibi o'zgaruvchan bo'lib, asosiy minerallari plagioklaz (30-40 %gacha) va rogovaya obmanka (60-75 %gacha), ba'zan biotit, ortoklaz, sfen, apatit, epidot, xlorit, seritsit, kvarts va boshqa minerallar uchraydi.

Spessartitlar eng ko'p tarqalgan lamprofir daykalaridan hisoblanadi. Ular Zirabuloq-Ziyovuddin tog'larining janubiy qismlarida Zirabuloq, Ketmonchi, Quduqcha, Qarnab, Oqmazor, Mayzak va boshqa intruzivlarda hamda Ingichka, Changalli, Tim, Uzumli, Lapas qishloqlari atrofida qamrovchi cho'kindi-metamorfik jinslarda uchraydi. Ular deyarli meridional, ba'zan subkenglik tomon cho'zilgan. Alohida daykalar 500-600, ba'zan 1000 metrgacha cho'zilgan, qalinligi

0,5 m, baʼzan 1,5-2 metrni tashkil qiladi. Tarkibida rogovaya obmanka (60 %gacha) va oʻrta plagioklaz (40-45 %gacha), baʼzan piroksen, biotit va kaliy-natriyli dala shpati, kvars uchraydi.

Kersantitlar keng tarqalgan daykalar shaklida uchraydi. Ular Chiroq-joʻra, Qarnab, Lapas, Shauvoz qishloqlari va Zirabuloq togʻlarining boshqa joylarida uchraydi. Kersantitlar asosan yuqori silur davrining choʻkindi-metamorfik qatlamlarini yorib chiqadi. Ular odatda 150-300 m gacha, kamdan-kam hollarda 600-800 m gacha choʻzilgan holda kuzatiladi. Ularning qalinligi 0,5 m dan 1 metrgacha, kamdan-kam 2 m gacha yetadi. Kersantitlarning tuzilishi odatda mayda donali, porfirli.

Lapas konida yagona metakersantit daykasi namoyoni topildi (ЭЛ-1). U Lapas konidagi asosiy shaxta oldida shimoliy-sharqqa yoʻnalgan 1 m qalinlikda uchraydi. Tashqi koʻrinishi yashil kulrang, juda ham oʻzgartirgan, slanetslashgan. Togʻ jinsi tarkibida odatda nordon plagioklaz (65 %gacha) va biotit (20-25 %), kamroq-kaliy-natriyli dala shpati (6-8 %gacha), kvars, rogovaya obmanka, muskovit, xlorit va karbonatlar mavjud.

Tuzilishi porfirli, lepidoblastli, baʼzan koʻzoynakli, asosiy massa mayda donali albit, kvars-kaliy-natriyli dala shpati agregat granoblastli tuzilishga ega. Teksturasi yoʻl-yoʻl, slanetslashgan.

*Dioritli porfirli*lar toʻq kulrangga ega, parchalanish natijasida ular yashil-kulrangga aylanadi. Asosiy massa fonida plagioklaz va kvarsning och, baʼzan shaffof porfir ajrilmalari yaqqol koʻrinadi. Dioritli porfirli tuzilishi toʻliq kristallangan, porfirli. Porfir ajrilmalar qoʻshaloqli zonal plagioklazga, yaʼni (1,5-3 mm gacha) uning tarkibi yadroda An_{50-70} va chetida An_{30-38} toʻgʻri keladi. Baʼzan porfir ajrilmalar eritilgan kvars donalari (3 mm gacha) yoki biotitning qizil-jigarrang varaqalari uchraydi.

Asosiy massada plagioklaz porfir ajrilmalarining chekka qismidagi tarkibli plagioklazning teng miqdorda, rogovaya obmanka baʼzan kvars uchraydi. Rogovaya obmanka (oddiy) jigarrang-yashil va zaif pleoxroizmga ($C:N_g=16-21$; $2V=-68 - 83^{\circ}$) ega (Oʻrazayev, 1954).

Dioritli porfirli tarkibida rogovaya obmanka miqdorining koʻpayishi tufayli lamprofirlarga asta-sekin oʻtadi.

Monsoqranodiorit-porfir daykalari Qarnab qishlogʻidan 1,2 km janubiy-sharqda eski shaxta oldida uchraydi. Uning qalinligi 2,5-3 metr, tashqi koʻrinishi kulrang, oʻzgartirgan, yoʻnalishi shimoliy-sharq, yotishi tik. Togʻ jinsi porfir tuzilishga ega. Kvars tomirlari 0,2-0,9 m qalinlikda qamrovchi granitlarni ham daykalarni ham boʻyiga kesib oʻtadi. Bu holatni shlifda ham koʻrish mumkin, kvars-kalsitli tomircha kesib oʻtgan. Porfir ajrilmalarida plagioklaz, kaliy-natriyli dala shpati, biotit baʼzan kvars uchraydi. Ularning umumiy yigʻindisi taxminan 15-17 %ni tashkil qiladi. Asosiy massasi mayda donali boʻlib shu minerallardan tashkil topgan. Plagioklaz donasining chekka qismida albitlanish jarayoni sodir boʻlgan. U prizmatik, qoʻshaloqli baʼzan yumaloq shakllarda uchraydi va albitlanishdan tashqari seritsit-karbonat bilan aralashgan. Biotit plastinkalari oʻziga xos pleoxroizmga ega boʻlib, baʼzan ezilgan varaqachalar holda ham


uchraydi.

To'rtinchi bobda "Zirabuloq tog'laridagi plutonik daykalarining petrokimyoviy xususiyatlari" keltirilgan.

Zirabuloq intruzivi monchikitarida titan oksidi ancha yuqori, deyarli 3 %gacha yetadi, bu tarkibida yuqori titanli avgit va kersutitning ko'pligidan dalolat beradi, aksincha, Bukantov monchikitarida 1,72 %, Shimoliy Nurotada 2,26 %. Alyuminiyning miqdori ancha kam (11,33), muqobil monchikitalarda 15,16 %, bu ham, o'z navbatida, gibratlanish jarayoni ancha pastligidan, ya'ni qobiq jinslari ksenolitlari uchramaganligi sabab bo'lsa ajabmas. Bu fakti isbotlovchi yana muhim ko'rsatkich, bu magniy va kalsiyning miqdorlari (9,46-10,11 %) yuqoriligi hamda ishqorlar yig'indisining (4,60 %) nisbatan pastligidir. Qolaversa, temirning umumiy yig'indisi 13,34-bu muqobil jinslardan ancha yuqori.

Zirabuloq intruzivi monchikitalarining eng muhim ko'rsatkichlaridan bu nefelin normativligidir. Qolgan lamprofirlar gipersten yoki korund normativli.

TAS-diagrammada monchikitar, olivinli kampto-spessartitlar, kersantit, minetta va ayrim spessartitlar ishqorli tog' jinslari (ishqorli pikrobazalt, monsoqabbro, monsoqabbro-diorit, monsoqdiorit) maydonlariga tushadi. Aksariyat lamprofirlar, kvarsli dioritli porfirirlarning tarkibi normal qatordagi tog' jinslar maydonlariga tushadi. AFM diagrammasi deyarli barcha tog' jinslar tarkibi ohak-ishqorli va ishqorli seriyali maydonga tushgan, ammo olivinli kampto-spessartitlar tolelitli seriyaga tegishligi ko'rinib turibdi (2a,b-rasm).



2-rasm. Zirabuloq tog'laridagi plutonik daykalar tarkibining a-TAS-diagrammasi, b-AFM diagrammasida tutgan o'rni. 1-monchikit, 2-olivinli kampto-spessartit, 3-malxit, 4-spessartit, 5-kersantit, 6-minetta, 7-dioritli porfir, 8-monsoqabbro-diorit-porfir. AL-ishqorli lamprofirlar tarqalish maydoni, LL-lamproitlar, CAL-ohak-ishqorli lamprofirlar. Punktir chiziq-ishqorli va o'rta ishqorli jinslar chegarasi (lamprofirlar uchun, Le Bas et al., 1992).

Beshinchi bob "Plutonik daykalarining petrografik turlari va ularning geokimyoviy ixtisoslashuvi" ikkita bo'limdan iborat bo'lib, unda plutonik

daykalarining genetik turlari va plutonik daykalarining geokimyoviy ixtisoslashuvi hamda hosil bo'lish tabiati ko'rib chiqilgan.

Zirabuloq tog'lari plutonik daykalarining asosiy turlari o'rganildi hamda petrografik va geokimyoviy xususiyatlariga ko'ra quyidagi (1-jadval) petrografik turlarga ajratildi.


Plutonik dayka jinslarining geokimyoviy xususiyatlari siderofil element-aralashmalari-xrom, nikel, kobalt va Ni/Co va Cr/Ni nisbatlarining yuqori qiymati, nodir ishqorlar - Li va boshqalar konsentratsiyasining ortishi bilan ifodalanadi.

1-jadval

Zirabuloq tog'larida plutonik (1, 2) va sinintruziv (3) daykalarining petrografik turlari va hosil bo'lishi ketma-ketligi


№	Majmua	Petrografik turlari	Tarqalgan joylari	Geokimyoviy ixtisoslashuvi	Yoshi
1	Janubiy tiyoshon daykadiatremali	Monchikitlar, olivinli kamto-spessartitlar va b.	Zirabuloq granitoidli intruzivi va b.	Ishqorli lamprofiring xarakterli aksessor mineralari: titanomagnetit, ilmenit, gematit, pirit, pirrotin, sfalerit, galenit; geokimyoviy ixtisoslashuvi-temir, titan, oltingugurt, mis, rux, qo'rg'oshin, niobiy, tantal, gafniy, kumush, selen, NYE (315 g/t gacha) va b.	λT_{2-3} jut
2	Shimoliy nurota diabaz-diorit-lamprofir daykali	Dioritli porfirilar, diorit-spessartitlar, vomezitlar, spessartitlar, malxitlar, spessartit-kersantitlar, kersantitlar va b.	Granitoidli intruzivlar ichida (Quduqcha, Zirabuloq, Chiroq-Jo'ra, Oqmozor, Gunjak, Qarnab, Qo'shquduq, Ketmonchi va b.)	Ohak-ishqorli lamprofirilar va dioritli porfirilarning xarakterli aksessor mineralari: sirkon, sfen, monosit, ksenotim, torit, apatit, rutil, allanit, lyolingit (temir arsenidi), xalkopirit, pirit va b.; geokimyoviy ixtisoslashuvi-molibden, kumush, qo'rg'oshin, margimush, vismut, toriy, uran.	$\lambda \delta \pi P_{1-2}$ - $T_{1,sn}$
3	Qoratepa-Zirabuloq adamellit-granitli majmuasining tomirli fatsiyasi	Monsogranodiorit-porfirilar, granit-porfirilar va b.	Qarnab va b. intruzivlar atrofida	Sinintruziv monsoqranodiorit-porfirilar xarakterli aksessor mineralari: apatit, sfen, rutil, magnetit, pirit; geokimyoviy ixtisoslashuvi-seziy, volfram, qalay, qo'rg'oshin, vismut va b.	$\gamma \delta C_3$ - P_1 kz

Zirabuloq intruziyasining olivinli kamto-spessartitlari seziy, molibden, gafniy, kumush, ayniqsa margimush, selen, vismut va engil lantanoidlarga boyiganligini ko'rsatadi. Olivinli kamto-spessartitlardagi radioaktiv elementlarning (uran va toriy) xatti-harakatlarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, ularda toriy urandan ustun turadi. Kamyob va nodir yer elementlarining tarqalish tabiatini aniqlab berish uchun spayder-diagrammalar tuzildi (3-rasm).




3-rasm. Zirabuloq tog'lari plutonik daykalarida kamyob yer elementlarining tarqalish miqdori spayder-diagrammasi.

Nodir yer elementlarining tarqalishida yevropiy nome'yorligi sezilmaydi. Ishqorli lamprofirlar bazalt magmasining saralanishi natijasida emas, balki mantiya substratining past darajada erishi natijasida paydo bo'ladi deb taxmin qilish mumkin. Monchikitlar va olivinli kampto-spessartit daykalarida boshqa lamprofirlar bilan solishtirganda NYE bilan to'yinganini ko'rish mumkin (4-rasm).



4-rasm. Zirabuloq tog'lari plutonik daykalarida nodir yer elementlarining tarqalish miqdori spayder-diagrammasi.

Ohak-ishqorli lamprofirlar va b. plutonik daykalar postorogen yoki faol qit'a chekkasida (?) hosil bo'lgan, monchikit va olivinli kampto-spessartitlar plitachi zonasida shakllangan. Hf-Th-Nb/2 [Krmik va b., 2020], Ta/Yb-Th/Yb [Schandl va b., 2002] geodinamik diagrammalarda bu holat yaqqol kuzatiladi (5-rasm).



5-rasm. Zirabuloq tog‘lari plutonik daykalarining geodinamik diagrammalarda tutgan o‘rni: Hf-Th-Nb/2 [Krmik va b., 2020], Ta/Yb - Th/Yb [Schandl va b., 2002]; ko‘k rangda-monchikitlar, sariq-olivinli kampto-spessartitlar, yashil-spessartitlar, och qizil-kersantit, qizil-monsogranodiorit-porfir, qora-monsodiorit, avtolit. Maydonlar: Oceanic Arcs-okean yoyi, ACM (Active Continental Margins)-faol kontinent chekkasi, WPVZ (Within-Plate Vulcanik Zones) plitaichi vulqon zonasi, WPB (Within-Plate Bazalts) plitaichi bazaltlari, MORB (Mid-Oceanic Ridge Basalts) o‘rta-okean tizmalari bazaltlari.

Xulosa

1. Zirabuloq tog‘larining geologik tuzilishi murakkab bo‘lib, uning atrofidagi qalay va volfram konlari hamda ma‘danli namoyonlarda ko‘plab plutonik daykalar keng tarqalgan. Ular monchikit, olivinli kampto-spessartit, spessartit, malxit, kersantit, metakersantit, dioritli porfirritlardan iborat.

2. Ilk bor Zirabuloq tog‘larining plutonik daykalari orasida ishqorli lamprofirlar-monchikit va olivinli kampto-spessartit daykalari aniqlandi. Ular nefelin va korund normativli bo‘lib, janubiy tiyon-shon (T_{2-3}) majmuasiga tegishligi tasdiqlandi.

3. Plutonik daykalar porfirli tuzilishga ega va tarkibida olivin, titanavgit, kersutit, plagioklaz, biotit va b. minerallar hamda aksessor minerallardan titanomagnetit, gematit, ilmenit, pirrotin, xalkopirit, pirit, galenit, sfalerit, apatit sfen, monotsit, rutil, siron, ksenotim, nikelin, lyolingit, torit, gyotit va b. minerallar uchraydi.

4. Zirabuloq tog‘lari plutonik daykalari quyidagi petrografik turlari ajratildi va tegishli majmualarga birlashtirildi:

ishqorli lamprofirlar (monchikitlar, olivinli kampto-spessartitlar va b. lamprofirlar) shartli ravishda eng yosh magmatik hosilalar sifatida janubiy tiyon-shon (T_{2-3} jut) dayka-diatremali majmuasiga kiradi;

ohak-ishqorli lamprofirlar (malxit, spessartit, kersantit, minetta va b.) va dioritli-porfirritlar shimoliy nurota diabaz-diorit-lamprofirli (P_2-T_{1sn}) majmuasiga mansubligi aniqlandi;

monsogranodiorit-porfirlar, granit-porfirlar va b. daykalar qoratepa-zirabuloq adamellit-granitli majmuasining tomirli fatsiyasiga ($\gamma\delta C_3-P_1$ kz) mansub sinintruziv daykalar turiga kiradi.

5. Tariflanayotgan plutonik daykalar Zirabuloq-Qoratepa nodir metalli (W, Sn) kamarga mansub bo'lib, barcha konlarda va ma'dan namoyonlarida ular ishtirok etadi. Zirabuloq intruzividagi monchikitlar ($\sum_{NYE}=315,2$ g/t), Ingichka koni atrofidagi spessartit ($\sum_{NYE}=259,9$) va Lapas konidagi metakersantit ($\sum_{NYE}=306,01$) tarkibidagi NYE miqdori klarkka ($\sum_{NYE}=178$) nisbatan 1,5-2 barobar yuqoriligi, hamda Nb, Ta, Hf, Ag, As miqdori daykalarda yuqoriligi aniqlandi.

6. Plutonik daykalarning geokimyoviy ixtisoslashuvi ular tarkibidagi aksessor va ma'danli minerallar bilan aniqlanadi:

- ishqorli lamprofirning xarakterli aksessor minerallari: titanomagnetit, ilmenit, gematit, pirit, pirrotin, sfalerit, galenit; geokimyoviy ixtisoslashuvi-temir, titan, oltingugurt, mis, rux, qo'rg'oshin, niobiy, tantal, gafniy, kumush, selen, NYE va b.

- ohak-ishqorli lamprofirlar va dioritli porfirlarning xarakterli aksessor minerallari: sirkon, sfen, monosit, ksenotim, torit, apatit, rutil, allanit, lyolingit (temir arsenidi), xalkopirit, pirit va b.; geokimyoviy ixtisoslashuvi-molibden, kumush, qo'rg'oshin, margimush, vismut, toriy, uran.

- monsogranodiorit-porfirlarning xarakterli aksessor minerallari: apatit, sfen, rutil, magnetit, pirit; geokimyoviy ixtisoslashuvi-seziy, volfram, qalay, qo'rg'oshin, vismut va b.

7. Ohak-ishqorli lamprofirlar va b. plutonik daykalar postorogen geodinamik jarayonda hosil bo'lgan, monchikit va olivinli kampto-spessartitlar plitaichi magmatizmi geodinamik sharoitda shakllangan.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.24/30.10.2020.GM.125.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ИНСТИТУТЕ ГЕОЛОГИИ И
ГЕОФИЗИКИ им. Х.М.АБДУЛЛАЕВА**

ГУ «ИНСТИТУТ ГЕОЛОГИИ И ГЕОФИЗИКИ»

УТАМУРАДОВ ЭЛБЕК АЛИМЖОНОВИЧ

**ПЛУТОНИЧЕСКИЕ ДАЙКИ ЗИРАБУЛАКСКИХ ГОР
(ЮЖНЫЙ ТЯНЬ-ШАНЬ)**

04.00.03-Геотектоника и геодинамика. Петрология и литология

**АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по
ГЕОЛОГО-МИНЕРАЛОГИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Ташкент – 2024

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан под номером B2023.2.PHD/GM183

Диссертация выполнена в Государственном учреждении «Институт геологии и геофизики им. Х.М.Абдуллаева».

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного Совета (www.ingeo.uz) и на Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» по адресу (www.ziynet.uz).

Научный руководитель:	Ишбасв Халбай Джангирович доктор геолого-минералогических наук, профессор
Официальные оппоненты:	Ахунджанов Рахматжон доктор геолого-минералогических наук Дулабова Нафиса Юсуповна кандидат геолого-минералогических наук
Ведущая организация:	Ташкентский государственный технический университет имени Ислама Каримова

Защита диссертации состоится на заседании Научного совета DSc.24/30.10.2020.GM.125.01 при Институте геологии и геофизики им. Х.М.Абдуллаева «26» июля 2024 года в 10:00 часов. (адрес: 100164, город Ташкент, улица Олимлар, дом 64г. Тел.: (99871) 209-11-32 (5505), E-XAT ingeo@exat.uz; E-mail: ingeo@ingeo.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Института геологии и геофизики им. Х.М.Абдуллаева. (Зарегистрационный номер № 20). (Адрес: 100164, город Ташкент, улица Олимлар, дом 64г. Тел.: (99871) 209-11-32 (5505).

Автореферат диссертации разослан « 5 » июля 2024 г.
(реестр протокола рассылки № 20 от « 5 » июля 2024 г.)



Л.Р.Садыхова
Заместитель председателя
Научного совета по присуждению
учёных степеней, д. г.-м. н.

Э.М.Амиров
Ученый секретарь Научного совета по
присуждению учёных степеней, д. ф. г.-м.н. (PhD)

П.С.Султанов
Председатель научного семинара
при Научном совете по присуждению
учёных степеней, профессор, д. г.-м. н.

ВВЕДЕНИЕ

(аннотация к диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В последние годы мировой практике приобрело всё большее значение изучение различных плутонических дайковых образований с целью разработки научных критериев поиска оруденения золота, редких металлов и редкоземельных элементов. Результаты исследований, проведённых в развитых странах, особенно в Китае, позволяют решить ряд важных проблем, таких как источники образования магмы, абсолютный возраст, роль магмы в образовании месторождений полезных ископаемых, и служат важным источником информации при разработке факторов их прогнозирования.

В мировом масштабе проводится ряд целевых исследований, таких как формационный анализ, изучение вещественного состава даек, рудоносности и определения взаимосвязи даек с эндогенной минерализацией. В частности, особое внимание уделено связи даек лампрофиров с оруденением золота, серебра, полиметаллических и редкоземельных элементов, а также разработки научно обоснованных факторов при поиске эндогенных рудных месторождений.

Проводятся крупные научно-исследовательские работы по изучению малых интрузий и даек на золоторудных и редкометальных месторождениях в Центрально-Кызылкумском, Нуратинском, Зирабулак-Зиаэтдинском, Южно-Гиссарском и Чаткало-Кураминском горнорудных регионах нашей республики. В частности, определены новые петрографические типы пород (лампроиты, лампрофиры и др.) и их роль в формировании эндогенного оруденения. Новая стратегия развития Узбекистана для дальнейшего развития Республики Узбекистан определяет важные задачи «Дальнейшего развития, совершенствования и ускорения отрасли»². В связи с этим важно определить петрографические и петрогеохимические характеристики даек Зирабулакских гор, показать их минерализацию, связь с ними оруденения, разработать факторы и применить их при геологоразведочной практике.

